XALQ DEPUTATLARI MIRZO ULUG‘BEK TUMAN KENGASHINING QARORI

2023 - yil 29 - dekabr II-98-190-14-200-K/23 Mirzo Ulug‘bek tuman hokimligi

2024-yil uchun Mirzo Ulug‘bek tumani mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-, 24-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksining 99-moddasi, 2023-yil 25-dekabrdagi “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-sonli Qonuni, xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining 2023-yil 28-dekabrdagi VI-95-278-14-0-K/23-son qarori hamda Toshkent shahar Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 26-dekabrdagi 01-3/2688-sonli xati asosida xalq deputatlari Mirzo Ulug‘bek tumani Kengashi

Q A R O R Q I L A D I :

1. O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni (keyingi o‘rinlarda Qonun deb ataladi) hamda xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining 2023-yil 28-dekabrdagi “2024-yil uchun Toshkent shahar mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-95-278-14-0-K/23-son qarori (keyingi o‘rinlarda Qaror deb ataladi) qabul qilinganligi;

Qarorning 5-ilovasiga muvofiq Mirzo Ulug‘bek tumani mahalliy budjetining 2024-yil uchun daromadlari 168 227 000,0 ming so‘m va xarajatlari 168 227 000,0 ming so‘m miqdorida balanslashgan holda belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2024-yil uchun Mirzo Ulug‘bek tumani mahalliy budjeti daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. 2024-yil uchun Mirzo Ulug‘bek tumani mahalliy budjetidan budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. 2024-yil uchun umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ajratmalar normativlari bo‘yicha Toshkent shahar mahalliy budjeti bilan tumanlar mahalliy budjetlarining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda Toshkent shahar bo‘yicha G‘aznachilik xizmati boshqarmasi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

5. 2024-yil uchun Mirzo Ulug‘bek tumani mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 1 444 411,0 ming so‘m miqdorida belgilansin.

6. 2024-yil uchun Mirzo Ulug‘bek tumani mahalliy budjetida yo‘l qo‘yiladigan aylanma kassa mablag‘larining eng kam miqdori 660 000,0 ming so‘m etib belgilanganligi inobatga olinsin.

7. O‘zbekiston Respublikasining mazkur qonuni bilan 2024-yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy budjetlarni boshqarishda, xususan, mahalliy budjet xarajatlarini hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2024-yilda quyidagi soliq turlari:

a) tuman budjetiga to‘liqligicha o‘tkazib beriladi:

- jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

- jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

- davlat aktivlarini joylashtirishdan, foydalanishga (ijaraga) berishdan va sotishdan tushumlar;

- yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno.

b) quyidagi soliq turlari va boshqa majburiy to‘lovlar Toshkent shahar va Mirzo Ulug‘bek tumani mahalliy budjetlari o‘rtasida taqsimlanadi:

- aylanmadan olinadigan soliq;

- benzinni, dizel yoqilg‘isi va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

- yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

- yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

- jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan daromad solig‘i teng ulushlarda;

- davlat mulkini ijaraga berishdan tushadigan tushumlar.

8. Quyidagilar tegishlicha Toshkent shahrining shahar budjetidan, tumanlar budjetlaridan moliyalashtiriladi:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridag soliq qo‘mitasining hududiy organlarini saqlash xarajatlari;

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya Vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining hududiy organlarini saqlash harajatlari;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Toshkent shahri, tumanlar Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari;

Sud boshqaruvchilari mehnatiga haq to‘lash bilan bog‘liq xarajatlar.

9. Mirzo Ulug‘bek tumani hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Saidaliyev), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Sh.Ismailov), tuman soliq inspeksiyasi (D.Usmanov) mas’ul bo‘lim va tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon va kommunal xizmatlar uchun harajatlarning rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirilishini nazoratga olsin;

- mahalliy budjet prognoz ko‘rsatkichlarini o‘z vaqtida va samarali bajarish;
- budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;
- budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;
- tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushishini ta’minlash;
- budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

10. Mirzo Ulug‘bek tumani Soliq inspeksiyasi (D.Usmanov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlardan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishi hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan olinadigan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilari tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga harid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratish;

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish;

Kadastr agentligi Mirzo Ulug‘bek tumani bo‘limi (B.Kuleshov) bilan birgalikda tumanda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlasin.

11. Majburiy ijro byurosi Mirzo Ulug‘bek tumani bo‘limi (Y.Usmonxodjaev) Mirzo Ulug‘bek tumani soliq inspeksiyasi (D.Usmanov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rib borishini ta’minlasin.

12. Xalq deputatlari Mirzo Ulug‘bek tumani Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasiga:

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etiladigan takliflarni belgilangan muddatlarda jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazish va budjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengashning qaror loyihasini ishlab chiqish;

Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratiladigan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatish, tavsiyalar berish va monitoring qilish;

mahalliy budjet harajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirishda ishtirok etish va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirish vazifasi topshirilsin.

13. Quyidagilar:

Tuman budjeti harajatlarining kamida 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larning kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirishni;

bunda, xalq deputatlari Mirzo Ulug‘bek tumani Kengashi, Yoshlar ishlari agentligi Mirzo Ulug‘bek tumani bo‘limi, tuman hokimligi huzuridagi jamoatchilik Kengashi hamda yangi joriy etiladigan hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishni tavsiya etish;

mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan harid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’yektlar ro‘yhati, shuningdek, qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10-sanasiga qadar majburiy tartibda tuman hokimligi rasmiy veb-saytiga joylashtirib borish topshirilsin.

14. Mirzo Ulug‘bek tumani hokimining birinchi o‘rinbosari, tuman soliq inspeksiyasi, iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi, tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi va tegishli tashkilotlar bilan birgalikda:

mahalliy budjet daromad va harajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha xalq deputatlari Mirzo Ulug‘bek tumani Kengashiga har chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

15. Mirzo Ulug‘bek tumani matbuot xizmati (M.Parmonov):

mazkur qaror rasmiy e’lon qilinishini va www.mirzoulugbek.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirilishi ta’minlasin.

16. Xalq deputatlari Mirzo Ulug‘bek tumani Kengashining 2023-yil 5-yanvardagi “2023-yil uchun Mirzo Ulug‘bek tumanining mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi II-74-1-14-200-K/23-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

17. Ushbu qaror 2024-yil 1-yanvardan e’tiboran kuchga kiradi.

18. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Mirzo Ulug‘bek tumani Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohatlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi B.Muxamedov hamda Mirzo Ulug‘bek tuman hokimining birinchi o‘rinbosari A.Saidaliyev zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi **Sh.T.Irgashev**

Xalq deputatlari Mirzo Ulug‘bek
tuman Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
II-98-190-14-200-K/23-son qaroriga
1-ilova

2024 yilgi Mirzo Ulug‘bek tumani budjeti daromadlarining prognozi

ming so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	Miqdori
Daromadlar jami		**168 227 000**
1	Aylanma olinadigan soliq	16 955 000
2	Jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	9 158 000
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	20 706 000
4	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	53 530 000
5	Aksiz soliq (benzin, dizel va gaz)	22 335 000
6	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno	8 595 000
7	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	12 989 000
8	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	21 381 000
9	Davlat mulkini ijaraga berishdan tushadigan tushumlar	2 578 000

Xalq deputatlari Mirzo Ulug‘bek
tuman Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
II-98-190-14-200-K/23-son qaroriga
2-ilova

2024-yilgi Toshkent shahri Mirzo Ulug‘bek tumani budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	Miqdori
Xarajatlar miqdori, jami		**168 227 000,0**
	joriy xarajatlar:	*168 227 000,0*
1.	**Maorif**	***59 246 309,0***
	joriy xarajatlar:	*59 246 309,0*
-	**umumiy ta'lim**	**31 407 910,0**
	joriy xarajatlar:	31 407 910,0
-	**maktabgacha ta'lim**	**27 838 399,0**
	joriy xarajatlar:	27 838 399,0
2.	**Sog‘liqni saqlash sohasi**	**4 349 265,0**
	joriy xarajatlar:	4 349 265,0
3.	**Madaniyat va sport, ommaviy axborot vositalari**	**9 380 343,0**
	joriy xarajatlar:	9 380 343,0
-	**Madaniyat sohasi**	**2 178 724,0**
	joriy xarajatlar:	2 178 724,0
-	**Jismoniy tarbiya va sport sohasi**	**7 201 619,0**
	joriy xarajatlar:	7 201 619,0
4.	**Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»**	**114 353,0**
	joriy xarajatlar:	114 353,0
5.	**Ijtimoiy ko‘nikma markazlari**	**220 632,0**
	joriy xarajatlar:	220 632,0
6.	**Ichki xo‘jalik avtomobil yo‘llarini ta'mirlash xarajatlari**	**1 335 000,0**
	joriy xarajatlar:	1 335 000,0
7.	**Obodonlashtirish sohasi**	**24 702 654,0**
	joriy xarajatlar:	24 702 654,0
8.	**"Mahalla budjeti" jamg‘armasi mablag‘lari**	**8 270 083,0**
	joriy xarajatlar:	8 270 083,0
9.	**Davlat boshqaruv organlarini saqlash**	**36 053 950,0**

	joriy xarajatlar:	36 053 950,0
10.	**Zaxira jamg‘armasi**	**1 444 411,0**
	joriy xarajatlar:	1 444 411,0
11.	**Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi**	**23 110 000,0**
	joriy xarajatlar:	23 110 000,0

Xalq deputatlari Mirzo Ulug‘bek
tuman Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
II-98-190-14-200-K/23-son qaroriga
3-ilova

2024 yil uchun Mirzo Ulug‘bek tumani budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar meyorlari

foiz hisobida

T/P	Tuman nomi	Aylanmadan olinadigan soliq	Yakuniy iste'molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bunda elektr stansiyalari tomonidan tolanadigan soliq mustasno
1	Mirzo Ulug‘bek tumani	18%	50%	19%	15%	100%